


Umumta'lim maktabning 2024-2025 o'quv yili 10-sinf o'quvchilarining fizika fanini o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test, savol, masala va topshiriqlar varianti

I ChSB (fizika) DEMO

1. Rasmda metall halqalar kiydirilgan 4 ta bir xil yog'och silindr tasvirlangan. Ularning qaysi biri turg'unroq? (bilish – 2 ball)




- A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

2. Massasi 6 kg bo'lgan bir jinsli xoda muvozanatda qolishi uchun F kuch qanday (N) bo'lishi kerak? (qo'llash – 2,8 ball)




- A) 6 B) 12 C) 15 D) 18

3. Rasmdagi vaznsiz richag muvozanatda bo'lishi uchun uning tayanchi yuk osilgan nuqtalardan necha metr uzoqlikda bo'lishi kerak? (qo'llash – 2,8 ball)



- A) 0,1 va 0,7 B) 0,3 va 0,5 C) 0,6 va 0,2 D) 0,4 va 0,4

4. Rasmda keltirilgan F_1 va F_2 kuchlar navbat bilan ta'sir qilganda, jism faqat ilgarilanma harakat qiladi. Bu jismning og'irlik markazi qaysi nuqtada joylashgan? (bilish – 2 ball)



- A) 1 B) 2 C) 4 D) 3

5. Jism Yerning sun'iy yo'ldoshi bo'lib qolishi uchun uning doiraviy orbitadagi tezligi qanday yo'nalgan bo'lishi kerak? **(bilish – 2 ball)**

- A) vertikal yuqoriga B) vertikal pastga
C) orbitaga urinma yo'nalishda D) gorizontga burchak ostida

6. Jismning bir nuqtasiga 1 N dan bo'lgan ikkita kuch bir-biriga 180° burchak ostida ta'sir etmoqda. Shu kuchlarning teng ta'sir etuvchisi qanday (N)? **(qo'llash – 2,8 ball)**

- A) 0 B) 0,5 C) 2 D) 0,7

7. Lift kabinasining shiftiga mahkamlangan prujinali taroziga m massali jism osilgan. Lift kabinasi yuqoriga yoki pastga tekis harakatlanganda, prujinali tarozining ko'rsatishi F qanday bo'ladi? **(qo'llash – 2,8 ball)**

- A) $F = mg$ B) $F > mg$ C) $F < mg$ D) $F = 0$


8. Botiq ko'prikda harakatlanayotgan avtomobilning og'irligi gorizonttal yo'ldagidan 1,1 marta ortiq bo'lsa, avtomobil tezligi necha m/s ga teng? Ko'prikning egrilik radiusi 9 m. **(qo'llash – 2,8 ball)**

- A) 3 B) 8 C) 9 D) 10

9. Disk gorizonttal tekislikda 15 ayl/min chastota bilan aylanmoqda. Aylanish o'qidan 10 cm masofada, disk ustida kichik jism yotibdi. Ishqalanish koeffitsiyentining qanday eng kichik qiymatida jism disk ustidan sirpanib tushib ketmaydi? **(qo'llash – 2,8 ball)**

- A) 0,01 B) 0,025 C) 0,1 D) 0,25

10. Chizmadagi qaysi qismda ishqalanish kuchi tortish kuchiga teng? (v – harakat tezligi, t – vaqt). **(qo'llash – 2,8 ball)**




- A) III B) II C) IV D) V

11. Jism va qiya tekislik orasidagi sirpanish ishqalanish koeffitsiyenti $\mu = 0,2$ bo'lsa, jism tezlanishi qanday (m/s^2) bo'ladi? Qiyalik burchagi 45° , $g = 10 m/s^2$. **(qo'llash – 2,8 ball)**

- A) 2,3 B) 4,5 C) 5,7 D) 1,8

12. Rasmda tasvirlangan qurilma yordamida qanday (N) og'irlikdagi yukni ko'tarish mumkin? Blok va richag vaznsiz. **(mulohaza – 4 ball)**



A) 300 B) 150 C) 3000 D) 600

13. Agar jism faqat ... ta'sirida harakatlansa, u vaznsizlik holatida bo'ladi. **(bilish – 2 ball)**

A) og'irlik kuchi B) elastiklik kuchi
C) markazga intilma kuch D) ishqalanish kuchi

14. Balandligi 3 m va uzunligi 15 m bo'lgan qiya tekislikka massasi 40 kg bo'lgan yuk 100 N kuch bilan tekis tortib chiqarildi. Qiya tekislik FIK ni toping (%). $g = 10 \text{ N/kg}$. **(qo'llash – 2,8 ball)**

A) 89 B) 83 C) 85 D) 80

15. 3 kg massali jism 8 m/s^2 tezlanish bilan pastga tekis tezlanuvchan harakat qilmoqda. Uning og'irligini toping (N). **(qo'llash – 2,8 ball)**

A) 2 B) 20 C) 30 D) 54